




## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Namangan viloyati statistika boshqarmasiga 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan 151 ta murojaatlar kelib tushgan. Jumladan:



Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi hamda boshqarmaning ishonch telefoni orqali kelib tushgan og'zaki murojaatlar



Boshqarmaning elektron pochtasi orqali kelib tushgan elektron murojaatlar

23

12



To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar

116



# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

**40.4 %**

*61 tasi korxona va tashkilotlarning  
yagona davlat registr bazasidan  
ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan.*



**15.2 %**

*23 tasi nafaqa hujjatlarini  
rasmiylashtirish uchun ish staji, ish  
haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini  
taqdim etish yuzasidan.*



**18.5 %**

*28 tasi statistik hisobotlarni  
to'ldirish va taqdim etish  
bo'yicha tushuntirishlar  
berish yuzasidan.*



**11.3 %**

*17 tasi topshirilgan  
hisobotidan nusxa so'rab  
hamda hisobotini qayta  
topshirish yuzasidan.*




**14.6 %**

*22 tasi boshqa  
masalalar yuzasidan  
kelib tushgan.*




# Murojaatlarni ko‘rib chiqish holati




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 112 tasiga chora ko'rildi, 38 tasi tushuntirildi, 1 tasi ko'rib chiqish jarayonida, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha:

Tahlillarga ko'ra,  
murojaatlarning jamiga  
nisbatan 35.8 % (54 ta) jismoniy  
shaxslar va 64.2 % (97 ta) yuridik  
shaxslarning murojaatlariga  
to'g'ri kelgan.



# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili:



 2019

 2020

Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Namangan shahri 92 ta (o'tgan yilning shu davrida 125 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan 5 ta (4 ta), Kosonsoy tumanidan 7 ta (6 ta), Namangan tumanidan 5 ta (14 ta), Norin tumanidan 2 ta (6 ta), Pop tumanidan 2 ta (8 ta), To'raqo'rg'on tumanidan 9 ta (9 ta), Uychi tumanidan 9 ta (6 ta), Uchqo'rg'on tumanidan 7 ta (3 ta), Chortoq tumanidan 1 ta (1 ta), Chust tumanidan (11 ta) Yangiqo'rg'on tumanidan 4 ta (13 ta), boshqa viloyatlardan 8 ta (6 ta), boshqa respublikadan (4 ta) murojaatlar kelib tushgan.



# Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Viloyat statistika boshqarmasi  
Jismoniy va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash va ijro  
intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A. Abdayev  
(69) 227-85-06  
e-mail: namstat@umail.uz  
Manzil: 160133, Namangan sh,  
N.Nomongoniy ko'chasi, 14- uy

*Eslatib o'tamiz!*

*O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik ko'rsatkich yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi?*

*Unday bo'lsa, quyidagi raqamlarga murojaat eting:*

*Ishonch telefoni:  
(69) 227-84-84*



*Viloyat statistika boshqarmasi  
rahbariyatiga bevosita murojaat etish:  
(69) 227-85-08*